SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KURBONOVA ZARINA ODILJONOVNA

QARDOSH BO‘LMAGAN TILLAR PAREMIOLOGIK FONDI IJOBIY BAHOSINING LISONIY KONSEPTUALLASHUVI
(ingliz va o‘zbek tillari paremiyalari misolida)

10.00.13 - Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.111:811.512.133+81-13

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy(PhD)
on philological sciences**

Kurbonova Zarina Odiljonovna
Qardosh bo‘lmagan tillar paremiologik fondi ijobiy bahosining lisoniy konseptuallashuvi (ingliz va o‘zbek tillari paremiyalari misolida)..... 3

Курбанова Зарина Адылжановна
Лингвистическая концептуализация позитивной оценки в паремиологическом фонде неродственных языков
(на примере паремии английского и узбекского языков..... 29

Kurbonova Zarina Odiljonovna
Linguistic Conceptualization of Positive Evaluation in the Paremiological Fund of Unrelated Languages (Based on English and Uzbek Paremias) 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 63

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KURBONOVA ZARINA ODILJONOVNA

QARDOSH BO‘LMAGAN TILLAR PAREMIOLOGIK FONDI IJOBIY BAHOSINING LISONIY KONSEPTUALLASHUVI
(ingliz va o‘zbek tillari paremiyalari misolida)

10.00.13 - Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil4169-raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Egamnazarov Qobil Abdunazarovich** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Bushuy Tatyana Anatolyevna** filologiya fanlari doktori, professor
	Jalgasov Nurjan Maratovich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "19" noyabr 2026-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chaci, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e–mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66694-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chaci, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "2" noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil "2" noyabr dagi №60 raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi fanining bugungi rivojlanish bosqichida ingliz va o‘zbek tillari paremiologik fondidagi ijobiy bahoning lingvistik, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularni qiyosiy o‘rganish hamda aksiologik jihatdan tizimlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq qardosh bo‘lmagan tillarda ijobiy baholovchi paremiologik birliklarning struktur-semantik, konseptual va milliy-madaniy xususiyatlarini kompleks qiyosiy asosda tadqiq etish, ularning baholash mexanizmlari va o‘zaro umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlash masalalari yetarlicha yoritilmagan. Shu bois paremiologik birliklarning aksiologik va lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli tadqiq etish, ularni tarjima, leksikografiya, xorijiy tillarni o‘qitish va madaniyatlararo kommunikatsiya amaliyotiga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida paremiologik birliklar tarixiy, struktur-semantik, lingvomadaniy, kognitiv, pragmatik va aksiologik yondashuvlar asosida keng tadqiq etilib, ularning xalq mentaliteti, qadriyatlari va milliy olam manzarasini ifodalash xususiyatlari aniqlanmoqda. Ilmiy jihatdan ustuvor yo‘nalishlar sifatida paremiologik birliklarning baholovchi mazmunini, konseptual-semantik tuzilishini, lingvomadaniy xususiyatlarini hamda turli tillardagi universal va milliy jihatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma asosda o‘rganish ajralib turadi. Mazkur yo‘nalishda ijobiy va salbiy bahoning lisoniy konseptuallashuvi, aksiologik strategiyalar, emotsional va ma’naviy konseptlarning paremiologik ifodasi, shuningdek, ularning kognitiv-pragmatik va kommunikativ xususiyatlarini chuqur tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifalar hisoblanadi..

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk davrlardan boshlab turli sohalarni qamrab olgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta’lim va fan taraqqiyoti sohasida olib borilgan ishlar diqqatga sazovordir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida o‘z ifodasini topgan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da respublika oliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va tahlil qilish asosida ta’lim dasturlarini jahonda tan olingan xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish”[1] vazifasi belgilangan. Bunday vazifalar ijrosini ta’minlashda ham tilshunoslik bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, tilni chog‘ishtirishga bagishlangan izlanishlarga bo‘lgan zarurat ortib boradi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida fan ta’sirini kuchaytirish, mamlakatning ilmiy salohiyatini mustahkamlash hamda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar xorijiy tillarni chuqur va tizimli o‘rganish, ularni turli yo‘nalishlarda ilmiy asosda tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayonda paremiologik birliklarni kompleks tahlil qilish, ularning lisoniy va ekstralingvistik mazmunini, shuningdek,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

madaniy-aksiologik xususiyatlarini aniqlash hamda lisoniy konseptuallashuv nuqtayi nazaridan tavsiflash dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy davrning tezkor rivoji tilshunoslik sohasidagi faoliyatni kengaytirdi. Shu bilan birga, maqollarning tarixiy rivoji, ularning strukturaviy-semantik va stilistik xususiyatlari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlarda turli yondashuvlar qo‘llanilgan. Xususan,F.Vitkovska, V.Mider, A.Jolkovskiylarning ishlari lingvistik va semantik yondashuv frazeologik va paremiologik birliklarni shakl, mazmun va funksional jihatdan o‘rganishga qaratilgan [2], G.Balikova, L.Savenkova, O.Dmitrieva va A.Vejbitskayalarning tadqiqotlarida kognitiv va konseptual yondashuvlar milliy-madaniy kontekst va konseptlar doirasida o‘rganilgan [3]. Shu bilan birga,

[2] Витковска Ф. Взаимодействие языковой формы и содержания в русской паремиологии: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Минск, 1986. 18 с.; Мидер В.О. О природе пословиц // Балканские чтения: Сб. ст. – М., 1991. – С. 188-198; Жолковский А.К. К описанию выразительной структуры паремий (разбор одной сомалийской пословицы) // Паремиологический сборник. – М., Наука, 1978. – С. 136-163.

[3] Балыкова Г.Ф., Савенкова Л.Б. Концептосфера «труд» в русских паремиях // Русский язык: фразеология, грамматика, стилистика: Сб. / Под ред. Н.В. Изотовой. – Ростов на Дону, 2000. – С. 42-54; Дмитриева О.А. Лингвокультурологический потенциал паремий // Коммуникативно-прагматические аспекты фразеологии: Тез. докл. межд. конф. – Волгоград, 1999. – С. 163-164; Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 288 с.

M.Azimova, J.Ambarsumova, E.Gurbish, M.Kuusi, E.Ivanovalarning qiyosiy tadqiqotlari rus, ingliz, nemis, tojik, arab, polyak va boshqa tillarda frazeologiya va paremiologiya birliklarini solishtirishga yo‘naltirilgan [4], V.Dal, A.Buslayev, K.Jarikbayev va A.Jigulyovlarning tarixiy hamda folklor tadqiqotlari esa xalq og‘zaki ijodi va paremiya tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan [5].V.Arxangelskiy, A.Jukov, P.Logan, N.Amosova, A.Kuninlarning frazeologik va grammatik yo‘nalishdagi tadqiqotlari esa paremiya va frazeologik birliklar orasidagi chegaralar, sintaksis va semantikani chuqur tahlil qiladi.

Ingliz tilida A.Kunin, J.Lokk, V.Maslova, V.Mieder, M.Mokienko, T.Pisanova, Z.Popova, L.Reyxshteyn, M.Retunskaya, I.Sternin, C. Stevenson, N.Teliya, A.Teylor, R.Yusupov va boshqalar[6]; rus tilshunosligida Yu.Apresyan, N.Arutyunova, L.Bayramova, A.Baranov, A.Vejbitskaya, D.Dobrovolskiy, V.Karasik, F.Kartashkova [7] va boshqalarning paremiologiya muammolariga

---

[4] Азимова М.Н. Сопоставительный анализ соматической лексики и фразеологии таджикского и английского языков: Автореф.дис. канд. филол. наук. – Душанбе, 1980. – 19 с.; Амбарцумова Ж.Э. Лингвострановедческий анализ соматических речений современного русского литературного языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1986. – 18 с.; Гурбиш Е. Сопоставительный анализ анималистической паремиологии русского и польского языков: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Д., 1982. – 20 с.; Кууси М. К вопросу о международной системе пословичных типов // Паремиологический сборник. – М.: Наука, 1978. – С. 53-81; Иванова Е.В. Пословичные картины мира (на материале английских и русских пословиц). – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2002. – 160 с.

[5] Даль В.И. Напутное // Даль В.И. Пословицы русского народа. – М.: Худож. лит., 1984. Т. 1. – С. 5-21; Буслаев Ф.И. Русские пословицы и поговорки (“Архив” Калачева, 1854, вып. 2; ср. также “Отеч. Записки”, 1854, т. 95 и “Современник”, 1854, т. 47); Жарикбаев К.Б. Пословицы и поговорки как предмет историко-психологических исследований // Материалы IV Всесоюзного съезда общества психологов. – Тбилиси, 1971. – С. 929-930; Жигулёв А.М. Из истории изучения и собирания пословиц и поговорок // Русские народные пословицы и поговорки: Сб. – М., 1965. – С. 297-347.

[6] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Просвещение, 1996. – 381с.; Локк Дж. Избранные произведения. – Москва: Соцэкгиз, 1960. – 532 с.; Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Система, 2008. – С.11-243; Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Наука, 2004. – С. 140-296; Mieder W. Investigation of Proverbs, Proverbial Expressions, Quotations and Cliches. – Bern, 1984. – 301 p.; Мокиенко В.М. В глубь поговорки. Рассказы о происхождении крылатых слов и образных выражений. – Санкт Петербург: Паритет, 1999. – 221 с.; Писанова Т.В. Национально-культурные аспекты оценочной семантики. – Москва: ИКАР, 1997. – 320 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 191 с.; Райхштейн А.Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. – Москва: Прогресс, 1980. – 215 с.; Ретунская М.С. Английская аксиологическая лексика: Монография. – Нижний Новгород: Изд-во НГЛУ, 1996. –272 с.; Стернин И.А. О выявлении национально-культурной специфики семантики слова. – Иваново: Изд-во ИГХТИ, 1984. – 152 с.; Stevenson C.L. Facts and values: Studies in ethical analysis. – London: Yale Univ. Press, 1964. – 244 p.; Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – С. 23; Taylor A. Selected writings on proverbs. – Helsinki, 1975. – 226 p. Юсупов Р.А. Введение в теорию и практику перевода. – Казань: Изд-во Мин - ва просвещения РСФСР, 1988. – 96 с.

[7] Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: Попытка системного описания. – Москва: Наука, 1995. – № 1. – С. 5-39; Арутюнова Н.Д. Время: Модели и метафоры // Логический анализ языка. – Москва: Языки русской культуры, 1997. – С.51-61; Байрамова Л.К. Ментальность русского человека в аспекте лингвистической аксиологии // Этнонациональная ментальность в художественной литературе. – Ставрополь: Изд-во Старопольск. ун-та, 1999. – С.79-82; Баранов А.Н. Аксиологические стратегии в структуре языка (паремиология и лексика) // Вопросы языкознания. – Москва, 1989. – №3. – С.74-90; Вежбицкая А. Культурно-обусловленные сценарии и их когнитивный статус // Язык и структура знания. – Москва: Ин-т Языкозн., 1990. – С.63-85; Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 1998. – №6. – С.65-69; Карасик В.И. Язык социального статуса. – Москва: Институт языкознания РАН, 1992. – 330 с.; Карташкова Ф.И. Косвенная номинация в аспекте мыслительно-языковой деятельности. – Иваново: Издательство ИГХТУ, 2003. – 250 с.

bag‘ishlangan fundamental ishlarida maqollarni to‘plash va ularni tasniflash, maqollar tahlili, hamda guruhlarga ajratishga doir masalalar o‘z aksini topgan.

O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganish borasida bir qator taniqli o‘zbek olimlari – N.Ostroumov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, X.Abdurahmonov, A. Musaqulov, M.Abdurahimov, M.Sodiqova, H.Karomatov, K.Karomatova, H.Berdiyorov, R.Rasulov, Sh. Raxmatullayev, T.Mirzayev va B. Sarimsoqovlar[8] ilmiy izlanishlar olib borganlar. Mustaqillikdan keyingi davrda esa maqollarni mazmun-mohiyatiga ko‘ra tasniflash va o‘zaro sinonim maqollarni mavzular asosida tartibga solish bo‘yicha B. Jo‘rayeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Har qanday tilning paremiologik fondi asosini ifodalovchi antropotsentrik yo‘nalishdagi maqol va matallar N.F.Alefirenko, G.A.Bagautdinova, N.N.Ivanova, V.M.Mokienko, V.N.Teliya[9] kabi olimlarning e’tiborini tortgan. Ammo, o ‘zbek va ingliz xalq maqollarining struktur-semantik, qiyosiy, pragmatik va paremiologik birliklar ijobiy bahosining o‘ziga xos xususiyatlari yetarli darajada yoritilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Yangi O‘zbekistonda til, adabiyot, tafakkur va jamiyatning o‘zaro aloqalari, sun’iy intellekt va raqamli tadqiqotlar” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillari paremiologik birliklar fondining ijobiy bahosini konseptologik va aksiologik aspektlarda tavsiflash va chog‘ishtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek tillaridagi ijobiy baholovchi paremiologik birliklarda oila, do‘stlik, aql va mehnat kabi umuminsoniy qadriyatlarning qiyosiy-lingvomadaniy ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilish, ularning umumiy hamda milliy-madaniy jihatlarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillarida ijobiy baholovchi paremiologik birliklar majmuasini tizimlashtirish hamda ularning struktur-semantik xususiyatlarini (leksik,

---

[8] Остроумовъ Н.П. Сарты. этнографические материалы. пословицы и загадки сартовъ. – Ташкент. Типолитография торг. дома “Ф.нГ.Бр.Каменеие”, 1895. – 228 с.; Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 527 б.; Абдураҳмонов Х. Мақол ва маталларда такрор компонентларнинг қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, № 3. – Б. 61-62.; Саримсаков Б.И., Мусакулов А.К. Узбекские народные пословицы. –Т ашкент: Фан, 1983. – 232 с.; Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 2019. – 512 b.; Абдурахимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. –216 б.; Содиқова М. Қисқача мақол-маталлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 76 б.; Караматова М., Караматов Ҳ. Provebs, Мақоллар, Пословицы. – Тошкент: Меҳнат, 2000. – 400 б. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 286 б.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.

[9] Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии. Антропоцентрический и аксиологический аспекты. Автореф. дис.... д-ра филол. наук. – Казань, 2007. – 40 с.; Иванова Н.Н. Примета – пословица как особая паремиологическая единица // Даль в парадигме современной науки: Язык – словестность – самосознание – культура. – Иваново: Изд во ИГХТУ 2001. – С.33-35; Мокиенко В.М. В глубь поговорки. Рассказы о происхождении крылатых слов и образных выражений. – Санкт Петербург: Паритет, 1999. – 221 с.; Телия В.Н Механизмы экспрессивной окраски // Человеческий фактор в языке: Языковые механизмы экспрессивности. – Москва: Наука, 1991. – С.36-66.

grammatik, kvantitativ va uyg‘unlashgan jihatlarini) kompleks yondashuv asosida ochib berish;

qiyoslanayotgan tillarning paremiologik tizimida aksiologik yo‘nalishdagi antroposentrik birliklarning konseptual-semantik xususiyatlarini tizimli ravishda aniqlash hamda ularning baholash mexanizmlarini tahlil qilish;

tilning leksik-frazeologik tizimida konseptlarning ifodalanish mexanizmlarini aniqlash hamda ingliz va o‘zbek tillarida ijobiy baholovchi paremiologik birliklarning turli sathlarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi ijobiy baholi paremiologik birliklar tanlangan. Jumladan, turli tipdagi etimologik, sinonimik lug‘atlar yordamchi va qo‘shimcha manba sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillarida paremiyalarning aksiologik aspektdagi semantikasi va strukturasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu ishni ochib berishda lug‘at definitsiyalarining kontekstual tahlili, qiyosiy-chog‘ishtirma, struktur-semantik tahlil, tavsiflash, maqoldagi aksiologik strategiyalarni yuzaga chiqarish, konseptual tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi ijobiy baholovchi paremiologik birliklarda oila, do‘stlik, aql va mehnat kabi umuminsoniy qadriyatlarning qiyosiy-lingvomadaniy ifodalanish xususiyatlari hamda milliy-madaniy jihatlari aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida ijobiy baholovchi paremiologik birliklar majmuasi tizimlashtirilib, ularning struktur-semantik xususiyatlari (leksik, grammatik, kvantitativ va uyg‘unlashgan) kompleks yondashuv asosida ochib berilgan;

qiyoslanayotgan tillarning paremiologik tizimida aksiologik yo‘nalishdagi antroposentrik birliklarning konseptual-semantik xususiyatlari tizimli ravishda aniqlanib, ularning baholash mexanizmlari ilmiy jihatdan dalillangan;

tilning leksik-frazeologik tizimida konseptlarning ifodalanish mexanizmlari aniqlashtirilib, ingliz va o‘zbek tillarida ijobiy baholovchi paremiologik birliklarning turli sathlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari ilmiy asosda isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillaridagi ijobiy baholovchi paremiologik birliklarga oid aksiologik mazmun va konseptual jihatlar struktur va semantik tahlil asosida aniqlangan, shuningdek, tahlilga jalb qilingan birliklarning ijobiy bahosi va uning namoyon bo‘lish darajalari ko‘rsatib berilgan;

ijobiy baholi paremiologik birliklarning leksik, grammatik, kvantitativ va uyg‘unlashgan komponentlari o‘rganilgan, ularning lisoniy va madaniy-aksiologik funksiyalari tahlil qilingan, mazkur birliklarning tadqiqot natijalari paremiologiya, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik muammolariga bag‘ishlangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirishga yordam berishi asoslangan;

tadqiqot materiallaridan tarjima nazariyasini rivojlantirishda, tarjimonlarning amaliy faoliyatida, ideografik ko‘p tilli lug‘atlarni ishlab chiqishda, shuningdek, ingliz yoki o‘zbek tillarini o‘qitish amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ingliz va o‘zbek tillaridagi tahlil qilingan ko‘p sonli maqollar, tilshunoslikdagi mavjud (struktur, semantik, stilistik, chog‘ishtirish va boshqa) yondashuv va metodlarning qo‘llanishi, lingvokulturologiya masalasiga doir tilshunoslikda amalga oshirilgan qator tadqiqotlarning nazariy qoidalaridan foydalanilganligi, zamonaviy tilshunoslikning dastlabki asosiy ilmiy-nazariy qonuniyatlari (antropotsentrizm tamoyili, fanlararo tamoyil), tadqiqot natijalarining ishning nazariy qonuniyatlariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u til va nutq birliklarining baholovchi xususiyatlarini chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi va baholovchilikni kognitiv-kommunikativ tarmoq tarkibi sifatida tadqiq etish bo‘yicha mavjud yo‘nalishlarga o‘z hissasini qo‘shadi. Tadqiqot natijalari esa kelajakda paremiologik birliklarni konstruktiv-semantik va kommunikativ-kognitiv kontekstda o‘rganish nazariyasi hamda amaliyotini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari leksikografik faoliyatda va antropotsentrik paremiologiya lug‘atlarini yaratishda qo‘llanishi mumkin, shuningdek, tadqiqot materiallari oliy o‘quv yurtlarida chog‘ishtirma frazeologiya bo‘yicha ma’ruzalarda hamda turli tizimli tillarda aksiologik paremiologiyani kontrastiv va chog‘ishtirma o‘rganish bilan bog‘liq maxsus kurslarda foydalanishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillari paremiologik fondi ijobiy bahosining lisoniy konseptuallashuvini tadqiq qilish jarayonida olingan nazariy xulosalar va amaliy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi ijobiy baholovchi paremiologik birliklarda oila, do‘stlik, aql va mehnat kabi umuminsoniy qadriyatlarning qiyosiy-lingvomadaniy ifodalanish xususiyatlari hamda milliy-madaniy jihatlari aniqlanganligiga doir mulohazalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 22-sentabrdagi 04/4834-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, qardosh bo‘lmagan tillar tizimida ijobiy baholi paremiologik birliklarning struktur-semantik (leksik, grammatik, kvantitativ, uyg‘unlashgan, kvantitativ-leksik) tavsifi ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida ijobiy baholovchi paremiologik birliklar majmuasi tizimlashtirilib, ularning struktur-semantik xususiyatlari (leksik, grammatik, kvantitativ va uyg‘unlashgan) kompleks yondashuv asosida ochib berilganligiga oid xulosa va yechimlardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan “ICM-2022-KA171-000077648” raqamli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 15-iyuldagi 04-04-1/3460-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bakalavr bosqichi talabalari uchun xorijiy tillarni o‘qitishda kredit tizimini joriy etish maqsadida ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma va dasturlar tadqiqot natijalari hisobiga shakllantirilgan, shuningdek, ushbu natijalar paremiologik birliklarni konstruktiv-

semantik hamda kommunikativ-kognitiv kontekstda o‘rganish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga ham xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillarning paremiologik tizimida aksiologik yo‘nalishdagi antroposentrik birliklarning konseptual-semantik xususiyatlari tizimli ravishda aniqlanib, ularning baholash mexanizmlari ilmiy jihatdan dalillangani haqidagi ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida AQShning Toshkent shahridagi elchixonasi hamda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 24-oktabrdagi 3298/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz va o‘zbek tillarida madaniy-markerlangan belgilar hisoblangan paremiologik birliklarning ijobiy baholovchi ma’no kombinatsiyalari tadqiq qilinib, ularning baho potensiali tahlil qilingan, shuningdek, tilning leksik-frazeologik tizimida konseptlarning verballashuv mexanizmlari belgilangan va chog‘ishtiriluvchi tillarda tahlil qilingan paremiologik birliklarning ijobiy bahosining namoyon bo‘lish darajalari aniqlangan;

tilning leksik-frazeologik tizimida konseptlarning ifodalanish mexanizmlari aniqlashtirilib, ingliz va o‘zbek tillarida ijobiy baholovchi paremiologik birliklarning turli sathlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari ilmiy asosda isbotlanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2025-yilning 30-iyunda efirga uzatilgan “Kun mavzusi” ko‘rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 30-iyundagi 01-07/230-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, efirga uzatilgan chiqishlarda milliy va jahon adabiyotiga oid maqollarning ijobiy konseptuallashuvi aniq misollar orqali izohlangan, ularning madaniyatlararo talqini yoritilib, tinglovchi va tomoshabinda tafakkuriy yondashuvni shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 1 ta respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnalda 3 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek tillari paremiologik fondining asosiy lingvistik tavsifi”** nomli birinchi bobida ingliz va o‘zbek tillari paremiologik fondining umumiy lingvistik xususiyatlari yoritiladi. Bobda turli millat va madaniyatga mansub tillarning paremiyalari orqali aks etadigan ijtimoiy-tarixiy tajriba, qadriyatlar hamda baholash mezonlarini lisoniy nuqtayi nazardan o‘rganish masalalari asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, baho kategoriyasining nazariy asoslari, uning paremiologik birliklarda namoyon bo‘lish mexanizmlari ham izohlanadi. Ingliz va o‘zbek tili maqol va matallarining struktur-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning shakliy tuzilishi, semantik qatlamlari va funksional imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Frazeologik birliklar (FB) muayyan til jamoasining milliy va madaniy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi etimologik vositadir. Kommunikativ frazeologik birliklar (KFB), ya’ni maqollar va paremiyalar, ona tilida so‘zlashuvchi xalqning mentalitetini yetkazishda ishtirok etuvchi, avlodlar o‘rtasida takrorlanuvchi belgilar sifatida faoliyat yuritadi. Ular xalq hayoti, turmush tarzi, tarix, urf-odat va an’analarni yorqin ifodalaydi. Misol uchun, o‘zbek tilida: *“So‘zning tuzi maqoldir”*, *“Maqol bilan aytilgan so‘z mag‘zini topadi”*; ingliz tilida: *“Old proverbs never lie”*, *“Proverbs are the wisdom of the ages”*.

Maqol va matallarning tadqiqi ikki yo‘nalishda olib boriladi: paremiografiya – to‘plash, paremiologiya – lingvistik tahlil. Turli tillarda “maqol” va “matal” tushunchalarining izohi farqlidir. Ingliz tadqiqotchilari bu ikki turni ajratmaydi, rus frazeologlari esa “matal” terminini ishlatmaydilar. Struktur va semantik mezonlar asosida maqol tugallangan, umumiy ma’noga ega, matal esa ko‘pincha tugallanmagan va aniq ma’noli ifoda sifatida tasniflanadi[10]. Masalan, ingliz tilida *“Like attracts like”*, *“You can judge a man by the company he keeps”*; o‘zbek tilida: *“Kim bilan yursang, shunga o‘xshaysan”*, *“Qo‘ldan kelganda qil”*.

Maqol va matallarning semantikasi denotativ va konnotativ komponentlardan iborat bo‘lib, konnotativ ma’no ularning madaniy va ijtimoiy funksiyasini belgilaydi. Xorijiy tadqiqotchilar maqolli paremiyalarni struktur[11], funksional[12] va kognitiv[13] yondashuvlar bilan tahlil qilishgan.

Rus paremiologiyasi rivojida I.P.Permyakov [14] maqol va matallarning mantiqiy-semiotik tasnifini ishlab chiqdi, shuningdek, tilning paremiologik tarkibini sotsiologik jihatdan o‘rgandi. O‘zbek folklorshunosligida maqollarni

---

[10] Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – Москва: Просвещение, 1957. – С. 35; Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 1990. – С. 342.

[11]Stevenson C.L. Facts and values: Studies in ethical analysis. – London: Yale Univ. Press, 1964. – 244 p.; Dundes A. On the structure of the proverb. – New Jersey, 1975. – №3. – P. 961-973.

[12]Burke K.A. Rhetoric of Motives. – California: University of California Press, 1962. – 204 p.; Levin S. The semantics of metaphor. – London: Baltimore, 1977. – P. 123.

[13]Anderson J.R., Bower G.H. Human associative memory. – New York: Gramercy Books, 1974. – 270 p.; Dijk T.A. van Studies in the Pragmatics of Discourse. – Paris: Mouton, 1981. – P. 131.

[14] Пермяков Г.Л. К вопросу о структуре паремиологического фонда // Типологические исследования по фольклору. – Москва: Наука, 1975. – С.247-274.

yig‘ish va to‘plash XIX asrdan boshlangan, Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G‘ulom Zafariy va boshqa olimlar ushbu sohada ishlagan. 1980-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti 13 mingga yaqin maqollarni alifbo tartibida nashr etdi.

Maqollarni tasniflashning asosiy shakllari – alifbo tartibi, mavzular bo‘yicha guruhlash hamda to‘g‘ri/ko‘chma ma’noga qarab ajratish hisoblanadi. Ushbu tasniflar maqolning semantik o‘zgarishlarini, davr talablariga mosligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, ingliz tilida: *“The servant has become the master”*, *“Know where your bread is buttered”*; o‘zbek tilida: *“Sozi to‘g‘rining o‘zi to‘g‘ri”*, *“Chirigan yog‘ochni qayirib bo‘lmaydi”*.

Zamonaviy tilshunoslikda paremiologik fond uch yo‘nalishda o‘rganiladi: alohida kontseptlar tahlili, turli tillardagi fondlarning taqqoslanishi, va maqollar okkazional o‘zgarishining stilistik effektlari.

Frazeologizmlar mental leksikonda to‘plangan, leksikalashgan so‘z birikmalarini ifodalaydi. Tadqiqotchilar paremiyalarning quyidagi parametrlarini ajratadilar: ma’no kompozitsionalligi, semantik izomorflik/allomorflik, sintaktik o‘tkazuvchanlik, komponentlarning variantliligi, konnotativ-pragmatik kengayish, neytral yoki markerlanganlik, umumiy yoki noyob komponentlar, paradigmaning muntazamligi, motivatsiyalanganlik va radial kategoriya sifatida shakllanish va shu kabilar.

Maqol va matallarning frazeologik maqomi borasida “tor” va “keng” yondashuvlar mavjud bo‘lib, “tor” yo‘nalish tarafdorlari frazeologizmni barqaror leksik kombinatsiya, maqolni esa butun gap sifatida ko‘rishadi. Masalan, ingliz tilida *“Turn a deaf ear to something”*, *“What you don’t know won’t hurt you”*; o‘zbek tilida *“Kim bilan yursang, shunga o‘xshaysan”*, *“Maqol bilan aytilgan so‘z mag‘zini topadi”*. Shuningdek, frazeologizmlarda komponentlar o‘rtasidagi semantik va sintaktik bog‘lanish barqaror va motivlangan, ularning ichki shakli axborot va assotsiativ bog‘lanishlarni uzatadi, kumulyativ va direktiv funksiyalarni ta’minlaydi.

Frazeologizmlar tilda milliy ong stereotiplari sifatida shakllanadi, bunda hayotiy qadriyatlar va diniy-an’anaviy konseptlar aks ettiriladi. Maqollar barqarorlik, qayta tiklanuvchanlik va idiomatiklik xususiyatiga ega bo‘lib, leksik tarkibni saqlaydi va ko‘chma ma’no bilan boyitiladi. Chastotali maqollar korpusi subyektiv va o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bundan 50-60 yil oldin kam ishlatilgan paremiyalar esa bugungi zamonaviy sharoitda faol maqollarga aylanishi mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqol va matallar lingvistik jihatdan o‘ziga xos strukturaviy va semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning tuzilishi, leksik tarkibi, metaforik va metonimik vositalar bilan ifodalangan ma’nolari tilning mantiqiy tizimi, madaniy kontekst va ijtimoiy tajriba bilan chambarchas bog‘liqdir. Struktur-semantik tahlil ifodalardagi ma’no qatlamlari, sintaktik shakllar va semantik bog‘liqliklarni aniqlashga yordam beradi. Ingliz va o‘zbek tilidagi maqollarni solishtirish universal lingvistik prinsiplar va madaniyatga xos semantik nuanslarni ochib beradi. Tadqiqot natijalari til o‘rganish va tarjima jarayonlarida qo‘llaniladigan samarali vositalarni aniqlash imkonini beradi.

A.V. Kunin[15] frazeologik birliklarni **konstant** va **konstant-variativ** turlarga ajratadi.

Konstant – komponentlar o‘zgarmas bog‘lanadi. *Masalan:*

Inglizcha: *If you run after two hares, you will catch neither.*

O‘zbekcha: *Ikkita quyon ortidan quvlasang, hech birini tutolmaysan.*

Konstant-variativ – asosiy komponent saqlanadi, lekin ayrim qismlar o‘zgarishi mumkin:

1. **Leksik:** *Every cloud has a silver lining – Har tunning bir tongi bor*
2. **Grammatik:** *A little goes a long way – Toma-toma ko‘l bo‘lur*
3. **Kombinatsiyalangan:** *Do in Rome as the Romans do – Daraxt mevasi bilan, inson mehnati bilan go‘zal*
4. **Leksik-pozitsion:** *He that sups with the devil needs a long spoon – Mehnat sharaf, mehnatsiz harom*
5. **Kvantitativ-leksik:** *There are spots in the sun – Otning ham qiri bor, odamning ham aybi bor*

Bu holatda maqollar mavzulari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Halollik va adolat: *Stealing will not bring you success – O‘g‘irlik molning tagi qilday*

Urush va xavf: *War is sweet to them that know it not – Urush tomoshabinga oson*

Ahmoqlik va dono bo‘lish: *A wise man changes his mind, a fool never will – Aqlliga aytdim, angladi; aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi*

Salomatlik va mehnat: *Early to bed, early to rise… – Sog‘lom tanda – sog‘ aql; Mehnat sharaf, yalqovlik – la’nat*

Maqollar darak, so‘roq va buyruq gap shaklida ham namoyon bo‘lib, solishtirish va antonimlarni ham ifodalashi mumkin. Tadqiq qilingan paremiyalar uch mavzuga bo‘linadi: inson va hayot tarzi, inson va jamiyat, inson shaxs sifatida. Maqollar xalqning intellektual va emotsional qadriyatlarini aks ettiradi, tuzilishi til paradigmalari, milliy o‘ziga xoslik va endemik birliklar orqali aniqlanadi.

Kontakt-variativ aloqadorlikka ega frazeologik birliklarda asosiy komponent saqlanib, boshqa komponentlar turli variantlarda namoyon bo‘ladi. Bunday birliklar leksik, grammatik, kvantitativ, kombinatsiyalangan, leksik-pozitsion va kvantitativ-leksik turlarga ajratiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, bu birliklar har ikki til paremiologik fondida keng uchraydi va o‘xshash mazmuniy modellar asosida shakllanadi.

1-jadval

Kontakt-variativ aloqadorlikka ega frazeologik birliklar

Asosiy jihat	Tavsif
Umumiy belgi	Asosiy komponent saqlanadi, qolganlari variantlashadi
Variativlik darajasi	Leksik, grammatik, kvantitativ va aralash shakllarda namoyon bo‘ladi
Til materiallari	Ingliz va o‘zbek tillarida parallel kuzatiladi
Lingvistik ahamiyati	Frazeologik birliklarning moslashuvchanligi va barqarorligini ko‘rsatadi

[15] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Просвещение, 1996. – С. 23.

Mazkur hodisa frazeologik birliklarda barqarorlik va o‘zgaruvchanlikning uyg‘unligini aks ettiradi. Asosiy semantik yadroning saqlanishi mazmun yaxlitligini ta’minlasa, variantlashuv esa ularning nutqiy moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Demak, olib borilgan izlanishlarda shuni anglash mukinki, ingliz va o‘zbek maqollari insonning hayotiy, ijtimoiy va shaxsiy tajribasini, xulq-atvorini aks ettiradi. Bunda halollik, sabr, mehnatsevarlik, dono-nodon qarama-qarshiligi, boylik, oilaviy qadriyat, sog‘liq, mehnat va me’yoriy qadriyatlar kabi jihatlar namoyon bo‘ladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, maqollar va matallar tilning frazeologik, leksik-semantik qatlamlarini chuqur tushunishda va til o‘rganish jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Paremiologik birliklar ijobiy bahosining lisoniy konseptuallashuvi**” deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz va o‘zbek tillari paremiologik fondida namoyon bo‘ladigan ijobiy bahoning lisoniy va kognitiv asoslari tahlil qilinadi. Bobda baho komponentining mazkur tillardagi paremiyalar tarkibida qanday shakllanishi, qanday semantik va madaniy omillarga tayanuvchi konseptual mazmunni yuzaga keltirishi izohlanadi. Shuningdek, baholovchi mazmunni o‘rganishda lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik va paremiologiyaning tayanch nazariy tushunchalari sharhlanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida ijobiy baho ifodalovchi paremiyalarning potensiali, ularning madaniy obrazlar, qadriyatlar va milliy mentalitet bilan aloqadorligi qiyosiy o‘rganiladi.

Tilshunoslikda baho kategoriyasi subyektning voqelik, hodisa, shaxs yoki predmetga nisbatan munosabatini ifodalash orqali tilning pragmatik va funksional xususiyatlarini ochib beradi. U inson idroki, qadriyatlari, madaniy tajribasi va ijtimoiy pozitsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, semantik, kognitiv, kommunikativ va madaniyatshunoslik tahlillarni qamrab oladi.

Baho kategoriyasi semantika va pragmatika kesishmasida shakllangan muhim lingvistik hodisa bo‘lib, u ijobiy, salbiy va neytral munosabatlarni ifodalaydi. Yevropa va Amerika tilshunosligida J. Lyons, G. Leech, T. van Dijk[16] kabi olimlar bahoning kommunikativ, modal va diskursiv xususiyatlarini tahlil qilgan.

O‘zbek tilshunosligida N. Mahmudov, Sh. Safarov, G‘. Qambarov, Z. Pardayev[17] va boshqalar baho kategoriyasining kognitiv, semantik va pragmatik jihatlarini o‘rganib, uning nutqdagi ifodalanish mexanizmlarini yoritgan.

Y.M.Volf baholarni mutlaq va nisbiy turlarga ajratadi: mutlaq baho (masalan, *yaxshi/yomon*) ijtimoiy stereotiplarga asoslangan implitsit qiyosni ifodalaydi, nisbiy baho (*yaxshiroq/yomonroq*) esa obyektlar yoki ularning holatlarini taqqoslashga asoslanadi[18]. Tabiiy tilda absolyut baholar sodda, elementar tasavvur orqali ifodalanadi: *chiroyli, aqlli*, nisbiy baholar esa qiyosiy jarayonni talab qiladi.

---

[16] Lyons J. Linguistic Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 1995. 376 p.; Leech G.N. Principles of Pragmatics. London: Longman, 1983. 250 p.; Van Dijk T.A. Text and Context. – London: Longman, 1977. 261 p.

[17] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. Б. 3-16; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 89 б.; Qambarov G‘. S. Baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishi. Filol. fan. nomz. diss... avtoref. – T., 2008. – 56 b. Пардаев З. Баҳо категорияси ва унинг фанлараро муносабати // Р. Қўнғуровнинг илмий мероси ва ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд, 2008. 78-б.

[18] Вольф Е.М. Оценочное значение и соотношение признаков «хорошо/плохо» // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 1986. – С.98-106.

N.D.Arutyunova[19] aksiologiyada baholarni uch guruhga bo‘ladi:

I. Individuallashgan (individual) baholar:

1) **Ta’m bilish yoki gedonistik baholar:** *yoqimli – yoqimsiz, mazali – bemaza*.

2) **Psixologik baholar:** intellektual (*qiziqarli – zerikarli*), emotsional (*xushchaqchaq – g‘amgin*).


3) **Sublimatsiyalangan baholar:** estetik (*chiroyli – xunuk*), axloqiy (*yaxshi – yovuz*), ratsional/utilitar (*foydali – zararli*), normativ (*to‘g‘ri – noto‘g‘ri*), teologik (*samarali – samarasiz*).

Individuallashgan baholar jismoniy tajribaga asoslangan, motivatsiyalanmagan bo‘lib, subyektning didi va hissiyotlarini aks ettiradi.

II. Insonparvarlik asosida baholar: Estetik baholar ajoyib tuyg‘usi bilan, axloqiy/etik baholar esa ma’naviyat qoniqishi bilan bog‘liq. Bu guruh arxetipga yaqin bo‘lib, me’yor va obyektga qo‘yiladigan talablar bilan uzviy bog‘liq.

III. Ratsionalistik (oqilona) baholar: Ular insonning amaliy faoliyati, qiziqishlari va kundalik turmush tajribasiga bog‘liq bo‘lib, jismoniy yoki ruhiy foyda, maqsadga yo‘naltirilganlik va standartlarga muvofiqlik mezonlariga ega.

Mazkur nazariy asoslar baho kategoriyasini til birliklari va nutq jarayonida sistematik tahlil qilish imkonini beradi.



1-rasm. Baholash turlarining ierarxiyasi

Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan baholashning uch toifasi – xususiy, sublimatsiyalangan va ratsionalistik baholar – insonning jismoniy, ruhiy va ma’naviy olamini birlashtiradi. Sublimatsiyalangan baholar atrof-muhitning

[19] Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 1985. – С.203.

xususiyatlariga hissiy, ta’m bilish va psixologik reaksiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, estetik jihatdan foydali yoki zararli natijalar bilan ham izohlanadi. Masalan, implitsit semantik belgi *yoqimli* bir vaqtning o‘zida estetik va axloqiy baholarning motivi bo‘lishi mumkin.

Til me’yorlariga munosabatni baholovchi ifodalar qadriyat mulohazalari uchun eng obyektiv asoslarni taqdim etadi. Sublimatsiyalangan baholar teleologik bo‘lib, insonning ma’naviy va amaliy ehtiyojlarini qamrab oladi, masalan, axloqiy va estetik baholar go‘zallik va insoniy qadriyatlar bilan bog‘liqdir. Ba’zi tadqiqotchilar ularga funksional, piyetet [hurmat, qadrlash, ehtirom, muqaddas sanash] va qiyosiy baholarni ham qo‘shadi, masalan, inglizcha *a creaking door hangs longest* misolida me’yoriy va teleologik baholar uyg‘unlashadi.

Kognitiv yondashuv tilning yashirin aksiologik mexanizmlarini o‘rganishga yordam beradi, inson tajribasi va qadriyatlar tizimi asosida umumiy va xususiy baholovchi qiymatlarni shakllantiradi. Xususiy baholar hissiy-empirik, emotsional, psixologik va ratsional asosga ega bo‘lib, ular subyekt tajribasining turli jihatlarini aks ettiradi: *yoqimli/yoqimsiz, mazali/bemaza, qiziqarli/zerikarli, xushchaqchaq/g‘amgin* va hokazo.

Umumiy baho xususiy baholar kombinatsiyasi orqali aniqlanadi, bunda obyektning aksiologik qarama-qarshi xususiyatlari muvozanatlashadi. Masalan, *yaxshi pichoq* uchun *o‘tkir*, *yaxshi ota* uchun *g‘amxo‘r* xususiyatlari umumiy bahoga xizmat qiladi. Qarama-qarshi “plus” va “minus” qiymatlar muvozanati asosida obyektning umumiy bahosi aniqlanadi.

Baholashning madaniy asosi insonlarning tarixiy, moddiy va ma’naviy qadriyatlariga, shuningdek, ularning faoliyat ko‘nikmalari, bilim va malakalariga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois harakatlar, fazilatlar va niyatlar ijobiy yoki salbiy baholanishi mumkin. Biroq ularni sublimatsiyalangan baholar uchun bevosita asos sifatida qabul qilib bo‘lmaydi, chunki baholash jarayoni madaniy omillar va tashqi sharoitlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bilamizki, baho tafakkurning aks ettiruvchilik faoliyati tarkibidagi muhim lahzalardan biri hisoblanadi. M.V. Nikitin ta’kidlaganidek, tafakkur asosan baholovchi xususiyatga ega bo‘lib, insonning yashash sharoitiga moslashuvini belgilaydi [20] . Til baho ifodasining asosiy vositasi bo‘lib, leksika nutqda subyektlarning voqea va hodisalarga munosabatini aks ettiradi.

Norasmiy muloqotda frazeologik birliklar nutqning erkinligi va xotirjamligini ta’minlaydi. E.S. Aznaurova bahoni shunday talqin qiladi: “so‘zning semantik strukturasida qayd qilingan, milliy tilda muloqot qiluvchilar munosabatini ifodalovchi yondosh ma’no: ma’qullash – ma’qullamaslik, befarqlik – faxrlanish va hokazo”[21]. Shunday qilib, leksik va paremiologik birliklar orqali til jamoasining qadriyatli olam manzarasi shakllanadi.

Lingvistik aksiologiya insonning qadriyatlar tizimini va ularning tilda ifodalanishini o‘rganadi. Baho til vositalari bilan insonning xohish, ehtiyoj va

[20] Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – Москва: Высшая школа, 1988. – С. 54.

[21] Азнаурова Э.С Роль слова в создании прагматической направленности высказывания // Семантика и типология разно системных языков. – Ташкент: Изд-во ТГУ, 1984. – С. 73.

intilishlarini, ya’ni subyekt va predmet o‘rtasidagi qadriyat munosabatini ifodalaydi. Bunda baho qiymatlari ikki turga ajratiladi:

1. Anglanuvchi olam obyektlarini ijtimoiy va madaniy stereotiplarga muvofiq belgilovchi qadriyatlar;

2. Yaxshi/yomon, to‘g‘ri/noto‘g‘ri kabi insoniy ehtiyoj va his-tuyg‘ularga asoslangan qadriyat yo‘nalishlari.

Bundan tashqari, pozitiv (ijobiy), negativ (salbiy) va neytral qadriyatlar mavjud bo‘lib, Y.A. Dobridneva ularni “nominativ belgi mazmunining emotiv-bahoviy planidir” deb talqin qiladi[22]. Aksariyat Yevropa madaniyatlarida salbiy baholovchi so‘zlar ko‘proq, chunki inson salbiy holatlarni kuchliroq qabul qiladi.

Aslida, baho strukturasining ikki xususiyati mavjud bo‘lib, ular sifat va miqdor ko‘rsatkichlaridir. Sifat xarakteristikasi bahoning ijobiy, neytral yoki salbiyligini bildirsa, miqdor bahosi uning intensivligini ko‘rsatadi. N.D. Arutyunova bahoni ilmiy tadqiqotlar bilan birlashtirib, inson tafakkuri va qadriyatlar tizimini aks ettirishini ta’kidlaydi[23].

Baho tadqiqotida ikki asosiy – kommunikativ va kognitiv yondashuv mavjud. Kommunikativ yondashuv bahoni nutqiy aktlarda ifodalanishini, kognitiv yondashuv esa uning shakllanish va o‘z pozitsiyasini aniqlash jarayonini o‘rganadi. Postklassik davrda pragmatik konsepsiyalar *“ezgulik”, “yomonlik”, “istak”, “mamnunlik”* kabi aksiologik tushunchalarning lingvistik tahliliga qaratilgan. Ch. Stivenson bahoning asosiy vazifasini “faktlar haqida xabar berish emas, balki ta’sir o‘tkazish” deb ta’riflaydi[24].

Baho tahlilida A. Ayerning quyidagi fikri muhimdir: *“qadriyat mulohazalarini asoslash deyarli imkonsiz”*[25]. Shu bilan birga, A.N. Baranov “yaxshi” va “yomon” predikatlarining deskriptiv va baholovchi qo‘llanilishi farqliligini ta’kidlaydi[26]. Klassik aksiologiyada esa baho inson xulqi va qadriyatlar prizmasida tushuntiriladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, tadqiq qilinuvchi tillarda paremiologik fondning baho komponenti: a) inson tafakkuri va psixologik tajribani aks ettiradi; b) leksik va paremiologik birliklar orqali nutqda hodisa va narsalarga munosabatni bildiradi; v) etnosning qadriyatli olam manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Baholovchi so‘zlar va ularning semantik diapazonlari – til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni hamda lingvistik aksiologiyaning ahamiyatini ochib beradi. Aslini olganda, baho – inson ongiga xos operatsiya bo‘lib, subyekt va obyektning ahamiyatini belgilaydi hamda til vositalari orqali ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalaydi. Ammo, paremiologik baho murakkab bo‘lib, semiotik va kognitiv yondashuvlar bilan o‘rganiladi. Bu jarayonda frazeologik birlik bahosini tahlil qilish til, tafakkur va jamiyat aloqasini ko‘rsatadi.

---

[22] Добрыднева Е.А. Коммуникативно-прагматическая парадигма русской фразеологии. – Волгоград: Издательство ВГПУ, 2000. – С.63-72.

[23] Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Собвітие. Факт. – Москва: Наука, 1988. – С. 240.

[24] Stevenson C.L. Facts and values: Studies in ethical analysis. – London: Yale Univ. Press, 1964. – P. 114.

[25] Ayer A.J. Philosophical essays. – London: St Martin's Dress, 1963. – P. 34.

[26] Баранов А.Н. Аксиологические стратегии в структуре языка (паремиология и лексика) // Вопросы языкознания. – Москва, 1989. – №3. – С.74-90.

Baho so‘zlovchining ehtiyoj, istak va maqsadlariga nisbatan munosabatini bildiruvchi lisoniy kategoriya bo‘lib, qadriyat har doim ijobiy, baho esa ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Demak, aytish mumkinki, baho funksional-semantik maydonda yadro (umumiy) va periferiyadan (xususiy) tashkil topadi.

Baholash turlari – umumiy/xususiy, mutlaq/nisbiy, ratsional/emotiv kabilarga bo‘linishi mumkin. Baho leksik va grammatik darajada, so‘z birikmasi yoki gaplarda, sifatlar, otlar, ravishlar, sifatdoshlar, undovlar, fe’llar va olmoshlar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday vaziyatda baholash subyektiv ixtiyor va obyektiv predmet xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Baho intensivlik, emotsionallik, obrazlilik, ekspressivlik va modallik bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Bu kategoriyalar nutqning turli jihatlarini ifodalaydi: emotsionallik – subyektning hissiy kechinmalarini, ekspressivlik – ifodalilik va ta’sir kuchini, intensivlik – kattalik yoki darajani, obrazlilik esa – ko‘chma ma’no asosida yaratilgan tasviriylikni bildiradi. Affektivlik esa shaxsning baholanayotgan obyektga nisbatan hissiy qo‘zg‘alish, qiziqish yoki munosabat darajasini ifodalaydi. Ya’ni, subyektning obyektni qanchalik kuchli his qilishi yoki unga qanchalik ta’sirchan munosabat bildirishini ko‘rsatadi.

A.N. Baranov[27] rus maqollari asosida baholash strategiyalarini tahlil qilgan va baholar iyerarxiyasini taklif qilgan: **miqdoriy → prototipik → gomeostatik → umumiy**. Chapdan o‘ngga qarab deskriptivlik kamayadi, shaxsiy baho kuchayadi, gomeostatik baholar esa maqsadga erishish bilan bog‘lanadi.

1. **Miqdoriy** – narsaning miqdori yoki kattaligiga asoslanadi (inglizcha: *great, weak, large, small*; o‘zbekcha: *buyuk, ojiz, katta, kichik*).
2. **Prototipik** – miqdoriy tushunchaning umumlashgan shakli (inglizcha: *many, much, little*; o‘zbekcha: *ko‘p, oz*).
3. **Gomeostatik (maqsadli)** – maqsadga erishish darajasini bildiradi (inglizcha: *enough, suffice, content*; o‘zbekcha: *yetarli, mamnun*).
4. **Umumiy** – maqolning ijobiy-salbiy bahosini umumiy aks ettiradi.

Ushbu turlar vaziyat va uning komponentlarini baholash jarayonida turli konseptual funksiyalarni bajaradi va baholash jarayonini tizimli asosda tushunishga imkon yaratadi. Quyidagi jadval baho turlarining nomi, tavsifi va xususiyatlarini tizimli ko‘rsatadi:

2-jadval

Baho turlarining tasnifi

№	Baho turi	Tavsif / xususiyatlar
1	Miqdoriy	Vaziyat va komponentlarini miqdor parametrlari (masalan, kilogramm, litr, pound va hokazo) bo‘yicha baholash; deskriptiv va bahoviy qo‘llanishga ega
2	Prototipik	Vaziyat elementlarining tipik yoki model xususiyatlari asosida baholash
3	Gomeostatik	Vaziyatnimuvozanatli, stabillikkayo‘naltirilganbaholash
4	Umumiy	Vaziyatning umumiy holatini yoki xususiyatlarini baholash, keng qamrovli baho

Mazkur tasnif baho jarayonlarini konseptual tarzda tushunish, tahlil qilish va ularni amaliy tadqiqotlarda qo‘llash uchun metodik asos yaratadi.

[27] Баранов А.Н. Аксиологические стратегии в структуре языка (паремиология и лексика) // Вопросы языкознания. – Москва, 1989. – №3. – С.74-90.

Biz buni misollar orqali tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin:

Miqdoriy → prototipik: *two heads are better than one – bitta bosh yaxshi, ikkitasi yana ham yaxshiroq*

Miqdoriy → gomeostatik: *many hands make light work – agar ishga o‘n barmoq bilan kirishmasang, ish o‘n yilda ham tugamaydi*

Miqdoriy → umumiy: *many a little makes a mickle – mayda narsadan katta narsa hosil bo‘ladi*

Prototipik → gomeostatik: *little strokes fell great oaks – tomchi toshni yemiradi*


Prototipik → umumiy: *be swift to hear, slow to speak – kamroq so‘zlasang, ko‘proq eshitarsan*

Gomeostatik → umumiy: *Where there’s a will, there’s a way – xohish bor joyda, malaka bo‘ladi.*

Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillari maqollarida bir xil baho strategiyalari kuzatilishi ma’lum bo‘ldi.

1. Dastlabki miqdoriy baholi baholash strategiyasi;
2. Dastlabki prototipik baholi baholash strategiyasi;
3. Dastlabki gomeostatik baholi baholash strategiyasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha dastlabki baho turlari (miqdoriy, prototipik, gomeostatik va umumiy) maqollarda mavjud bo‘lib, ular binar yaxlitliklarni tashkil qiladi. Quyida ingliz va o‘zbek maqollarida kuzatilgan baholash strategiyalarini tizimli tarzda ko‘rsatishga harakat qilamiz. Bu orqali har bir dastlabki baho turidan chiqadigan bog‘lanishlar orqali baho predmetining shakllanishini va qaysi belgilar yordamida baho strategiyasi amalga oshirilishini ko‘rsatib o‘tamiz.



2-rasm. Ingliz va o‘zbek maqollardagi baholash strategiyalari

M→P = Miqdoriy → Prototipik
M→G = Miqdoriy → Gomeostatik
M→M = Miqdoriy → Miqdoriy
P→G = Prototipik → Gomeostatik
P→U = Prototipik → Umumiy
P→P = Prototipik → Prototipik
G→U = Gomeostatik → Umumiy
G→G = Gomeostatik → Gomeostatik
U→U = Umumiy → Umumiy

Ko‘rish mumkinki, har bir dastlabki baho turi o‘ziga xos yo‘nalishlarda boshqa baho turlariga o‘tadi, bu esa maqollardagi aksiologik talqin va baholash jarayonining murakkabligini aks ettiradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi baholash strategiyalarining umumiy qonuniyatlarini ko‘rsatadi va ularni qiyosiy tahlil qilish hamda konseptual asosda tahlil qilish uchun metodik vosita sifatida xizmat qiladi.

Baholar ijobiy va salbiy koʻrinishga ham ega boʻlishi mumkin. Masalan, ijobiy baho ingliz tilida *well*, oʻzbek tilida *yaxshi* soʻzlari orqali, salbiy baho esa ingliz tilidagi *bad, evil, ill*, oʻzbek tilidagi *yomon, hayvon* soʻzlari orqali ifodalanadi. Salbiy baho inkor qoʻshimchalari va prefikslar bilan ham (inglizcha: *un-, in-, mis-*) bildiriladi. Oʻzbek tilida esa odatda *emas/mas, yoʻq, tugul* va qoʻshimchalar orqali ifodalanadi (*ish qilmas, doʻstsiz*).

Ingliz va oʻzbek paremiologik birliklar baho strategiyalarini uygʻun tarzda aks ettiradi va turli aksiologik darajalarni (miqdoriy, prototipik, gomeostatik, umumiy) birlashtiradi, bu esa baholashning lingvistik va kognitiv jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Antroposentrik paradigma insonning oʻzini va faoliyatini anglash orqali olamni tushunishini ta'kidlaydi. Tilshunoslikda bu paradigma inson va tilni subyekt sifatida oʻrganishga olib kelib, lingvomadaniyatshunoslik fanining shakllanishiga turtki berdi. **Konsept** – tilda ifodalanuvchi, etnomadaniy oʻziga xos va oliy ma'naviy qadriyatlarga ishora qiluvchi madaniy bilim yoki ong birligidir.

Konsept kognitiv tilshunoslik, semantika, lingvomadaniyatshunoslik, falsafa, psixologiya va psixolingvistikada qoʻllaniladi. Uni oʻrganishda kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar mavjuddir. Mazkur ishda konsept – semantik struktura orqali verballashgan, ma'lum leksema va real voqea bilan bogʻliq konseptual ma'no majmuasi sifatida qaraladi.

Konsept tarkibida tushunchaviy, qadriyatli va obrazli komponentlar mavjud. Qadriyatli komponent – soʻzlovchining ongida obrazlarni dolzarblashtiruvchi hayotiy tajriba; tushuncha esa predmet yoki hodisaning tabiiy belgilarini ratsional anglash orqali ifodalaydi. Konseptlar insonning olamni bilish faoliyatini ta'minlaydi, til sohibi esa ularni tashuvchi sifatida dunyoqarashni hosil qiladi.

Konseptni yuzaga chiqarishda obyektlar bilan harakatlar, belgilarning ajraluvchanligi va bahosi muhimdir. Tilshunoslikda konsept tushunchasi S.A.Askoldov tomonidan 1928-yilda birinchi marta ishlatilgan va XX asr oʻrtalarida ilmiy adabiyotda qabul qilingan [28]. Maslova [29] qarashlariga koʻra, konsept – ongimizning aqliy resurslari va inson tajribasini aks ettiruvchi axborot tuzilmasidir.

Hozirgi tilshunoslikda konseptlarni tadqiq qilishda uch yondashuv mavjud:

1. **Madaniy yondashuv:** konsept – inson mental olamidagi madaniyatning asosiy yacheykasi, jamoaviy ongda markaziy oʻrin egallaydi. Til yordamchi vosita sifatida konseptni verballashtiradi.
2. **Kognitiv lingvistik yondashuv:** konsept mazmuni til belgisining semantikasi orqali shakllanadi.
3. **Soʻz-borliq vositachiligi:** konsept soʻz ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki insonning shaxsiy yoki xalqona tajribasi natijasida yuzaga keladi.

Z.D.Popova va I.A.Sternin[30] konseptni "strukturalashtirilgan bilimlar kvantini ifodalovchi global fikr birligi" sifatida tushuntiradi. Konsept inson ongida: a)

[28] Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – Москва: Академия, 1997. – С.45-268.
[29] Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Система, 2008. – С.11-243.
[30] Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – С. 78.

hissiy tajriba; b) predmetli faoliyat; c) mavjud konseptlar bilan aqliy operatsiyalar; d) til orqali ifodalash; e) til birliklaridan ongli bilish orqali hosil bo‘ladi.

Konseptning kognitiv maqomi – axborotni saqlash, uzatish va subyektiv tajribani qayta ishlashdir. U ramz, arxetip yoki geshtaltga o‘xshash, ammo ulardan farq qiluvchi tabiiy va ko‘p o‘lchovli strukturaga ega. Konsept madaniyatning “quyuqlashuvi” va translyatsiya vositasi hisoblanib, markazdan periferiyaga va aksincha harakatlanadi, uning mazmuniy boyishi chegarasizdir.

Konsept universal fenomen bo‘lib, milliy olam manzarasining o‘ziga xosliklarini aniqlashga yordam beradi. Milliy konseptosfera universal (ona, oila, vatan, muhabbat) va mahalliy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Lingvomadaniy kategoriya sifatida konseptning quyidagi asosiy belgilari mavjud:

1. Tasavvurlar universalligi va mavhumligi;
2. Umumiy mentalitetga ega repisiyentlar tomonidan tushunishdagi o‘xshashlik;
3. Madaniy-axloqiy, tarixiy-madaniy ahamiyat;
4. Jamoaviy ong orqali konseptosferaga ta’sir.

Konseptning invariant belgilari sifatida inson tajribasining minimal birligi, bilimlarni saqlash va uzatish, o‘zgaruvchan chegaralar va aniq funksiyalar, ijtimoiy maydon bilan bog‘liqlik va madaniyatning asosiy yacheykasi qaraladi. Konseptlar inson ongida olam tasavvurini yaratadi va til belgilari orqali mazmuni kodlanadi.

Yagona ta’rif yo‘qligi konseptning murakkab, ko‘p o‘lchovli strukturasi va sotsiopsixo-madaniy tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. U til sohibi tomonidan ratsional anglanmay, balki his qilinadi va madaniyatga xos assotsiatsiyalar, emotsiyalar, baholar hamda konnotatsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Bu konseptlar individual, mikroguruhli, makroguruhli, milliy, sivilizatsion va umuminsoniy konseptosferalarni tashkil qiladi va pedagogik, diniy, siyosiy, tibbiy kabi diskurslarda ishlatiladi. Shu bois lingvomadaniy konseptlar individual va jamoaviy lisoniy ongda muhim o‘rinni egallaydi.

V.A. Maslova madaniy konseptlarni 9 guruhga ajratadi[31]:

1. Olam *(makon, vaqt, Vatan…)*;
2. Tabiat *(suv, olov, daraxt…)*;
3. Ma’naviy konseptlar *(vijdon, uyat…)*;
4. Inson haqidagi tasavvurlar *(daho, tentak, intelligent…)*;
5. Ijtimoiy tushunchalar va munosabatlar *(erkinlik, urush…)*;
6. Emotsional konseptlar *(baxt, shodlik…)*;
7. Artefaktlar *(uy, xram, bong…)*;
8. Ilmiy bilimlar *(filologiya, matematika…)*;
9. San’at konseptosferasi *(rassomchilik, musiqa, haykaltaroshlik…)*.

Shunday qilib, tilshunos olimlar tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan konseptlar yagona, yaxlit konseptual sohani tashkil etadi. Har bir madaniyatda universal konseptlar (makon, vaqt, axloq, sevgi va boshqa kognitiv kategoriya va tushunchalar) mavjud bo‘lib, ular umumiy kognitiv tajribani va milliy dunyoqarashni aks ettiradi. Konseptlar shakllanishi va qabul qilinishi ijtimoiy,

[31] Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Система, 2008. – С.11-243.

etnografik, tarixiy va madaniy omillarga bog‘liq bo‘lib, lingvomadaniy yondashuv orqali dunyoqarashni ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Ijobiy baholi maqollarda hissiyotlar olamini xarakterlovchi konseptlar”**nomli uchinchi bobda ingliz va o‘zbek tillaridagi ijobiy baholi paremiyalar orqali hissiyotlar va madaniy qadriyatlar qanday aks etishi tahlil qilinadi. Bobda oila va qarindoshlik munosabatlari konseptining milliy mentalitetga xos jihatlari, shuningdek, *“aql”, “xotira”* va *“vijdon”* kabi abstrakt tushunchalarning paremiyalarda ifodalangan baholovchi mazmuni o‘rganiladi. “Do‘stlik” konsepti va uning til ichidagi ifodalanishi, ijobiy, axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi alohida ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, zoomorf obrazlar orqali shakllangan “mehnat” konsepti va uning ijobiy baho yaratishdagi roli ham misollar orqali yoritiladi.

Til inson hissiyotlarini ifodalash vositasi hisoblanadi. V.I. Shaxovskiy tilning emotiv kategoriyasini nazariy darajaga ko‘targan mustaqil soha – emotiologiyani yaratganini ta’kidlaydi[32]. Til nafaqat fikr, balki hissiyotlarni ham ifodalaydi. Barcha tillarda asosiy his-tuyg‘ular bir xil bo‘lib, madaniyatlararo bog‘lanishni ta’minlaydi. Emotsiyalar subyektning holati va obyektga munosabatini aks ettiradi va ijobiy-salbiy polyarlikka [qarama-qarshilik] egadir: *shodlik-g‘am, xursandchilik-qayg‘u*.

Inson hissiyotlari faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz reaksiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Lingvomadaniyatlarda emotsional baho ijobiy paremiyalar orqali ifodalanadi, masalan: *xursandchilik, baxt, sevgi, hayratlanish*. Ijobiy baholi maqollar o‘zbek va ingliz tillarida semantik gradatsiya va ekspressivlikni ko‘rsatadi.

Paremiologik birliklar insonga hayotiy vaziyatlarda oqilona xatti-harakatlarni tanlashga yordam beradi, til esa insonning sifatlari, xatti-harakatlari va psixologik holatini aks ettiradi. Paremiya ijtimoiy vaziyatlarda baholash va nasihat funksiyasini bajaradi.

Oila va qarindoshlik munosabatlari konsepti lingvokulturologik tadqiqotlarda yuqori qadrlanadi. Bunga ingliz tilidagi *a happy family* – baxtli oila; o‘zbek tilidagi *baxtli oila – oilaviy hayot, oilaviy turmush* kabi misollarni keltirishimiz mumkin. Nikoh, turmush qurish konseptlari ijobiy aksiologik baho bilan bog‘liqdir:

Ingliz tilida: *A wedding brings prosperity to the home; A good husband is his wife’s wing.*

O‘zbek tilida: *Kelin kirgan uyga nur kirar; Yaxshi er-xotinning qanoti.*

Diniy axloq nuqtai nazaridan nikoh muqaddas hisoblanadi, ajrimlar esa negativ baholangan. Masalan:

Ingliz tilida: *to many once is a duty, twice is a folly, thrice is a madness.*

O‘zbek tilida: *Bir marta uylanish vazifa, ikkinchi marta – ko‘ngil ochish, uchinchisi – azob.*

Paremiya orqali turmush o‘rtoqlarni tanlashda ehtiyotkorlik, oilaga e’tibor va boshqalarning fikrini hisobga olish tavsiya etiladi. Bu jarayaonda tillararo madaniy

[32] Шаховский В.И. Текст как способ экспликации эмоциональности языкового сознания. – Москва: Прогресс, 2000. – С.274-275.

tafovutlar ham uchraydi. Masalan, ingliz tilida erta turmush qurish salbiy baholansa, o‘zbek tilida bolalar ko‘payishi uchun tavsiya qilinadi. Misol uchun:

Ingliz tilida: *he that marries ere he be wise, will die ere he thrives.*

O‘zbek tilida: *Chiroying borida chinoringni top. Marry young, live long together.*

Oila va uy tasavvuri turli tillarda turlicha namoyon bo‘ladi, lekin umumiy obraz sifatida birlik, sheriklik va jamiyatdagi ijobiy qiymatlar bilan bog‘liq:

Ingliz tilida: *it takes two birds to make a nest; Husband and wife are like two wheels of a cart.*

O‘zbek tilida: *Er–xotin – qo‘sh qanot; Vaqti yetsa, qush ham bolasiga uya qurar; Yaxshi xotin uyning fayzi.*

Shu tariqa, ingliz va o‘zbek paremiologik fondlaridagi ijobiy baholi ma’nolar madaniy, diniy va tarixiy kontekstlar bilan bog‘liq bo‘lib, universal hamda lingvospetsifik jihatlarni aks ettiradi.

Har qanday konsept tilda ko‘p shaklli ifodalarning umumiy mazmunini o‘zida mujassam etadi. Ma’naviy konseptlarga ko‘plab madaniyatlarda markaziy bo‘lgan *“aql”*, *“xotira”*, *“vijdon”* kiradi. Ular orqali insonning ichki dunyosi va ma’naviy qadriyatlari ifodalanadi.

Aql: Turli xalqlarda aql intellektual qobiliyat, fahm, idrok bilan bog‘lanadi. S.I.Ojegov va N.Y.Shvedova tomonidan nashr etilgan “Rus tilining izohli lug‘ati”da[33] *“aql – insonning fikrlash qobiliyati, oqilona hayotning asosi”* deb berilgan, V.I.Dal esa uni *“bilish qobiliyati, fikrlash qobiliyatining umumiy nomi”*sifatida talqin qiladi[34]. Kant nazariyasida[35] aql *“amaliy aql”*, ya’ni axloq bilan bog‘liqdir.

O‘zbek tilidagi maqollar: *“Ahmoqda aql bo‘lmas, aqlli baxil bo‘lmas”*, *“Aql ko‘pga yetkazar, hunar – ko‘kka”*, *“Inson – aqli bilan, dono – naqli bilan”*.

Ingliz tilida: *“Wisdom is better than riches”*, *“A wise man travels a thousand lands”*, *“Where there is a will, there is a way”*.

Aql insonning mantiqiy va ijodiy fikrlash, bilish natijalarini umumlashtirish qobiliyati sifatida, shaxsni turmush bilan bog‘liq farosat, ehtiyotkorlik, oqilonalik bilan assotsiatsiyalaydi.

Vijdon: Insonning xulqini axloqiy tartibga soluvchi, ijobiy xarakter xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida *“nomus”* va ingliz tilida *conscience*, *honour* bilan bog‘liq. Vijdon shaxsning o‘z harakatlarini, shuningdek, fikr va his-tuyg‘ularini axloqiy nuqtai nazardan baholash qobiliyatidir.

V.I.Dalning fikricha: *“Vijdon – insondagi axloqiy ong, tuyg‘u yoki instinkt; yaxshilik va yomonlikni ichki anglash; harakatning sifatini tan olish qobiliyati; haqiqat va yaxshilikka undaydigan tuyg‘u”dir*[36].

O‘zbek tilidagi maqollar: *“Boylik ketsa-ketsin, or-nomus ketmasin”*, *“Yigit xuni – yuz tanga, or-nomusi – ming tanga”*.

---

[33] Ожегов СИ., Шведова, Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – Москва: Азбуковник, 1999. – С. 423.

[34] Даль В.И. Толковый словарь русского языка. – Москва: Эскимо-пресс, 2001. – С. 572.

[35]Кант И. Критика чистого разума / Пер. с нем. Н. Лосского сверен и отредактирован Ц. Г. Арзаканяном и М. И. Иткиным; Примеч. Ц. Г. Арзаканяна. – М.: Эксмо, 2007. – С. 281.

[36] Даль В.И. Толковый словарь русского языка. – Москва: Эскимо-пресс, 2001. – С. 452.

Ingliz tilida: *“a good conscience is a continual feast”*, *“conscience makes cowards of all us”*.

Vijdon konsepti shaxsning ichki istagi va iroda erkinligi asosida bajariladi, tashqi bahoga bog‘liq emas. Shuningdek, u shaxsning boshqa insonlar oldidagi ma’naviy va axloqiy javobgarligini ifodalaydi.

Shunday qilib, *“aql”* va *“vijdon”* konseptlari insonning intellektual, axloqiy va hissiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, taqqoslanuvchi lingvomadaniyatlarda shaxsning o‘z harakatlari va qadriyatlarini baholashga yo‘naltirilgan universal me’yor sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson obrazi sotsiologiya, psixologiya va lingvistikada ko‘p qirrali va ko‘p funksiyali tushuncha sifatida tadqiq qilinadi. Til belgilarida aks etgan emotsional holatlar orqali insonning ichki olami va kundalik ongi haqida ma’lumot olish mumkin.

XX asr oxirida tilshunoslar va psixologlar “do‘stlik” konseptini izohlashga qiziqish bildirganlar. Bu konsept shaxsning ruhiy-ma’naviy va axloqiy o‘lchovlarini aks ettiradi. Tarix davomida muhabbat va do‘stlik insonlararo munosabatlarda doimiy ahamiyatga ega bo‘lgan, va bugungi kunda ham bu mavzular ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ladi. Do‘stlik fenomeni insonning o‘zligini anglashi va dunyoni tushunishida muhim rol o‘ynaydi.

Chog‘ishtiriluvchi tillarda (ingliz va o‘zbek) “do‘stlik” FBlarida ijobiy baho yuqori pog‘onada turadi. Do‘stlik inson bilan muloqot, o‘xshashlikni bilish, tinchlik va xotirjamlikni ta’minlovchi muhabbatga asoslanadi. Masalan:

Ingliz tilida: *a faithful friend is the medicine of life*, *True friendship is a princeless treasure*;

O‘zbek tilida: *Chin do‘st jon ozig‘i*, *Do‘stlik dardga davo, g‘amga chora*, *Do‘stning tasallisi tabibning dori-darmonidan afzal*.

Do‘stona muloqot psixologik komfort va hayotdan qoniqishni oshiradi: *hopeless hope hopes and meets no end* (John Clare, 2003) – “Umidsiz inson muhabbatsiz va do‘stlarsiz yashaydi”.

Do‘stlik shaxslararo samimiylikni, maslahat, moddiy va ma’naviy yordamni, bir-birini kechirishni o‘z ichiga oladi:

Ingliz tilida: *A friend in need is a friend indeed*, *A friend tells you the truth, not what you want to hear*;

O‘zbek tilida: *Do‘st og‘ir kunda bilinadi*, *Do‘st achitib so‘zlar, dushman kuldirib*.

Ingliz va o‘zbek tilidagi paremiologik fondlarda do‘stlik quyidagi asosiy komponentlarga ega:

1. Yaqin tanishlik va ijobiy sifatlarni baholash;
2. Doimiylik, samimiylik va beg‘araz yordam;
3. Do‘stlar bir-biriga yoqimli, birga vaqt o‘tkazish;
4. Do‘st va dushman qarama-qarshiligi;
5. Nuqtai nazar, qiziqish va tashqi xususiyatlar bo‘yicha o‘xshashlik;
6. Do‘stlikning boshlanishi, sinovi va tiklanishi mumkinligi;
7. Majburiyat va yordam berish, maslahat va moddiy yordamni o‘z ichiga olishi.

Shunday qilib, “do‘stlik” konsepti ijobiy ma’naviy-axloqiy bahoga ega bo‘lib, insonlararo munosabatlarda hurmat, ishonch, samimiyat va hamdardlikka asoslanganligini ko‘rsatadi.

Turli xalqlar etnomadaniyatida hayvon nomlari ishtirok etgan maqollar va matallar insonning ijtimoiy, ma’naviy xususiyatlarini baholash vositasi sifatida ishlatiladi. Paremiyalarda tirik va notirik tabiat konseptlari inson sifatlarini tasvirlashda taqqoslash obyekti bo‘lib xizmat qiladi. F. Kartashkovaning ta’kidlashicha, *“insonning hayvon/artefakt bilan solishtirilishi ijobiy yoki salbiy konnotatsiya bilan kuzatiluvchi obrazli nominatsiyani yaratadi”*[37].

3-jadval

“Do‘stlik” konseptining aksiologik komponentlari

Yo‘nalish	Tavsif
Aksiologik baho	Ijobiy ma’naviy-axloqiy qadriyat
Teleologik xususiyat	Inson ehtiyojlari va maqsadlariga xizmat qiladi
Asosiy konnotatsiyalar	O‘zaro tushunish, samimiyat, yordam, hamdardlik, sofdillik, beg‘arazlik
Ijtimoiy ahamiyat	Ishonch va hurmatga asoslangan barqaror munosabat

Zoomorfik metaforalarda hayvonot olami haqidagi bilimlar inson xarakterining obrazli ifodasini boyitadi. Hayvonlar nomlari (zoonimlar) va qushlar nomlari (ornitonimlar) barcha tillarda qadimgi leksik qatlam hisoblanadi. Ko‘plab hayvon nomlari ijobiy axloqiy baho bilan bog‘lanadi: tulki – *“ayyor, laganbardor odam”*, g‘oz – *“ishonchsiz odam”*, ayiq – *“beso‘naqay odam”*, xo‘roz – *“qiziqqon, urushqoq odam”*.

Qushlar esa ko‘pincha donolik va foydali maslahat timsoli bo‘lib, masalan, boyqush mif va rivoyatlarda yordamchi qahramon sifatida uchraydi. Shu tariqa, zoonimlar va ornitonimlar insonning tashqi ko‘rinishi, xarakteri, xatti-harakatlari va aql-idrokini aks ettiradi. Denotativ ma’no bir xil bo‘lsa ham, hayvonlar haqidagi assotsiativ tasavvurlar tillar kesimida farq qiladi.

Ijobiy baholi FBlarda insonning mehnatsevarligi asosiy komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek maqollarida mehnatkashlikni aks ettiruvchi hayvon metaforalari keng tarqalgan:

Ingliz tilida: *Busy as a bee* – aridek band; *The early bird catches the worm* – mehnatsiz rizq bo‘lmas.

O‘zbek tilida: *Mehnatkash ari asal topar*; *To‘q ot charchamaydi*; *Mehnatsiz kishi – qushsiz daraxt*.

Bundan tashqari, “tajribali” komponent FBlarda maqsadga erishish va foyda olish qobiliyatini bildiradi:

Ingliz tilida: *An old fox not easily snared*; *An old ox makes a straight furrow*.

O‘zbek tilida: *Qari tulki foydani biladi*; *Asl otning tozi bo‘lgani bilinadi*.

Shu bilan birga, ijobiy baholar utilitar, teleologik va emotsional jihatlarni o‘z ichiga oladi. Paremiologik birliklar odatda undov va inkor shaklida ifodalangan bo‘lib, hayvon bilan taqqoslash orqali odamning eng yaxshi fazilatlarini maqtashga xizmat qiladi[38].

---

[37] Карташкова Ф.И. Косвенная номинация в аспекте мыслительноязыковой деятельности. – Иваново: Издательство ИГХТУ, 2003. – С. 50.

[38] Карасик В.В. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: культурные концепты; сб. науч. тр. – Волгоград – Архангельск: Перемена, 1989. – С.6-125.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, til nafaqat madaniyat mahsuli, balki inson tafakkuri, qadriyatlar va kontseptual modelni aks ettiruvchi vosita hisoblanadi. Maqollar va matallar ona tilida so‘zlashuvchilarning fikrlash tarzini shakllantiradi, ijtimoiy munosabatlarni boshqaradi va madaniy identitetni yaratadi.

XULOSA

Ingliz va o‘zbek tillari paremiyalarida ijobiy bahoning lisoniy konseptual shakllanishini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalar tahlili, shuningdek, mazkur tillardagi muayyan paremiyalarning qo‘llanilishi asosida olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, paremiyalar orqali aks etgan olam manzarasi inson tafakkurining kognitiv faoliyati mahsuli bo‘lib, u til egalari ongida shakllangan konseptual tizimning lisoniy ifodasidir. Ushbu tizim madaniy, ijtimoiy hamda gender omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi va ular orqali borliq muayyan baholash mezonlari asosida talqin qilinadi. Bizningcha, ingliz va o‘zbek paremiologik fondi voqelikni nafaqat aks ettiradi, balki uni interpretatsiya qiladi, umumlashtiradi va normativ model sifatida taqdim etadi, bu esa paremiyalarning kognitiv-pragmatik ahamiyatini yanada oshiradi.

2. Paremiologik materialning tahlili asosida aniqlanishicha, maqol mentaliteti xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va axloqiy qadriyatlarini mujassamlashtirgan barqaror konseptual qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu qatlam asrlar davomida shakllanib, til orqali avloddan-avlodga uzatiladi va jamiyatning kollektiv ongini aks ettiradi. Shu bilan birga, bizning kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida mazkur mentalitet turlicha struktur va semantik shakllarda ifodalanib, milliy tafakkurdagi o‘ziga xosliklarni aniqlashda muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek tillaridagi ijobiy baholovchi paremiologik birliklar tizimli ravishda aniqlanib, ularning struktur-semantik xususiyatlari – xususan, leksik tarkibi, grammatik qurilishi, kvantitativ ko‘rsatkichlari va uyg‘unlashgan modellari batafsil tahlil qilindi. Ushbu tasnif, bizningcha, paremiologik birliklarning ichki tuzilishini chuqurroq anglash, ularni tipologik jihatdan solishtirish va lingvistik tahlilni tizimlashtirish imkonini beradi. Natijada, paremiologik birliklarni o‘rganishda kompleks yondashuv zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

4. Qiyosiy tahlil natijalari ingliz va o‘zbek tillarida olamning paremiyalar orqali konseptuallashuvi umumiy universal kognitiv mexanizmlarga asoslanishini ko‘rsatdi. Boshqacha aytganda, har ikkala til egalari borliqni o‘xshash konseptual kategoriyalar orqali idrok etadi. Biroq, ushbu umumiylik fonida milliy-madaniy tafakkur, baholash mezonlari va obrazlilik darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Bizningcha, aynan shu tafovutlar lingvomadaniy stereotiplarni aniqlash va ularni ilmiy talqin qilishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

5. Tadqiqot natijalari ingliz paremiyalarida mavhumlik, ratsionalistik yondashuv va umumlashtirilgan mazmun ustun ekanligini ko‘rsatdi. Bunda ko‘chma ma’no va obrazlilik ikkilamchi ahamiyat kasb etadi. Aksincha, o‘zbek

paremiyalarida konkretlik, obrazlilik va hayotiy tajribaga tayanuvchi tasviriylik kuchliroq namoyon bo‘ladi. Bizningcha, mazkur farq har ikki xalqning tarixiy rivojlanishi, turmush tarzi va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu holat paremiologik birliklarning semantik tuzilishi va stilistik ifodasida o‘z aksini topadi.

6. Ijobiy baholovchi paremiyalarda oila, do‘stlik, aql va mehnat kabi umuminsoniy qadriyatlar asosiy konseptlar sifatida shakllanganligi aniqlandi. Ushbu konseptlar ikki til paremiologiyasida ham markaziy o‘rin egallab, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni ifodalaydi. Shu bilan birga, ularning ifodalanishida milliy obrazlar, metaforik vositalar va baholash mezonlarining o‘ziga xosligi kuzatiladi, bu esa lingvomadaniy tafakkurning milliy modelini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi.

7. Tahlil natijasida axloqiy baholashning tipik kombinatsiyalari – ya’ni axloqiy + ratsionalistik hamda axloqiy + hissiy + ratsionalistik modellar aniqlanib, ularning paremiologik tizimda keng qo‘llanilishi ilmiy asoslandi. Ushbu kombinatsiyalar baholashning ko‘p qatlamli va kompleks tabiatini ochib beradi. Bizningcha, bunday yondashuv baholash kategoriyasini faqat semantik hodisa sifatida emas, balki kognitiv va pragmatik jarayon sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

8. Tadqiqot davomida ijobiy axloqiy baholash ko‘pincha estetik, intellektual va normativ komponentlar bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Bu holat paremiologik birliklarning semantik sig‘imini kengaytiradi va ularning nutqdagi funksional imkoniyatlarini oshiradi. Natijada, paremiyalar nafaqat baholash vositasi, balki ta’sirchan kommunikativ birlik sifatida ham faol qo‘llanilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

9. Amaliy jihatdan qaralganda, ijobiy baholovchi paremiyalar nutq jarayonida baholash, rag‘batlantirish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida faol qo‘llanilishi aniqlandi. Bizningcha, ushbu birliklardan samarali foydalanish xorijiy tilni o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, tarjima jarayonida milliy koloritni saqlash hamda madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

10. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek paremiyalarida aks etgan lisoniy shaxsning verbal-semantik hamda kognitiv-antropologik xususiyatlari murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatdi. Paremiyalar orqali insonning tashqi xulq-atvori bilan bir qatorda uning ichki axloqiy-me’yoriy qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasi ham yoritiladi. Shu asosda, paremiyalarni inson omili bilan bog‘liq konseptual tizim sifatida talqin qilish mumkin.

11. Olingan natijalar paremiologiyani kognitiv va lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganishning yuqori ilmiy samaradorligini tasdiqladi. Shu bilan birga, bizningcha, kelgusida boshqa tillar materiallari asosida keng qamrovli qiyosiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, paremiologik birliklarning diskursiv va pragmatik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish mazkur sohaning nazariy va amaliy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕН ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

КУРБОНОВА ЗАРИНА ОДИЛЖОНОВНА

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИЯ ПОЗИТИВНОЙ ОЦЕНКИ В ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКОМ ФОНДЕ НЕРОДСТВЕННЫХ ЯЗЫКОВ (на примере паремии английского и узбекского языков)

10.00.13 – Сравнительное и сопоставительное языкознание

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан рег. № B2025.1.PhD/Fil4169.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.samdchti.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель: **Эгамназаров Кобил Абдуназарович**
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Официальные оппоненты: **Бушуй Татьяна Анатольевна**
доктор филологических наук, профессор

Жавгашев Нуржан Маратович
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Ведущая организация: **Термезский государственный универсистет**

Защита диссертации состоится «18» ноября 2026 года в 10[00] часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, ул. Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36; e–mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (рег. № 666/24). Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, ул. Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «2» ноября 2026 г.
(реестр протокола рассылки № 60 от «2» ноября 2026 г.)

Б.А. Холиков
Председатель Научного совета по присуждению ученых степен, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдашов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степен, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степен, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. На современном этапе развития мировой лингвистики проблема всестороннего изучения паремий всё в большей степени привлекает внимание исследователей. В условиях расширения интеграционных процессов и интенсификации межкультурных контактов возрастает необходимость изучения языков народов мира на основе сопоставительно-сравнительного анализа. Исследование генеалогических и типологических отношений между отдельными языками и языковыми группами позволяет определить степень их близости и расхождения, а также восстановить относительную хронологию лингвистических явлений, являющихся для них общими. Особую значимость в этом контексте приобретают исследования в области паремиологии, поскольку паремиологические единицы в наиболее сжатой и выразительной форме отражают повседневный образ жизни народа, его менталитет и культурную специфику. Именно эти обстоятельства обусловливают особую важность и актуальность изучения паремиологии в рамках мировой лингвистики.

В последние годы в мировой науке всё большее внимание уделяется исследованию субъективного слоя паремиологического фонда языка – языкового выражения отношения человека к явлениям действительности и его оценочной позиции. Язык, отражая объективную реальность и эмоционально-социальный опыт человека, посредством категории оценки демонстрирует сложные взаимоотношения между человеком и окружающим миром. Поскольку культурная картина народа репрезентируется через язык, изучение национальной картины мира на материале паремиологии английского и узбекского языков представляется особенно значимым. Лингвистическая аксиология направлена на выявление системы ценностей этноса и способов её репрезентации в языке. Комплексное исследование паремиологических единиц создаёт научную основу для раскрытия ценностной системы социума и обеспечивает особую актуальность данного направления в современной науке.

С первых дней независимости в нашей стране были начаты масштабные реформы, среди которых особого внимания заслуживают преобразования в сфере образования и науки. В Указе Президента Республики Узбекистан была поставлена задача по разработке обоснованных предложений по адаптации образовательных программ к требованиям признанных в мире международных стандартов на основе гармонизации системы высшего образования Республики с международными образовательными стандартами, глубокого изучения и анализа передового зарубежного опыта, что нашло свое отражение в «Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»[39]. В обеспечении реализации данных задач возрастает роль лингвистических исследований, в том числе работ,

[39]Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»

посвящённых сопоставительному изучению языков. Повышение роли науки во всех сферах социально-экономического развития Республики Узбекистан, укрепление научного потенциала страны и совершенствование качества подготовки научно-педагогических кадров обусловливают необходимость проведения исследований, направленных на всестороннее и глубокое изучение иностранных языков и их научный анализ в различных аспектах. В этом контексте особую значимость приобретает комплексное исследование паремиологических единиц, их лингвистического и экстралингвистического содержания, культурно-аксиологической репрезентации, а также их описание с точки зрения языковой концептуализации.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по коренному повышению авторитета и статуса узбекского языка как государственного», от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране масштабных реформах», от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый этап», Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», от 19 мая 2021 года № 312 «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков», а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Настоящая работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. «Развитие информационного общества и демократического государства, социальное, правовое, экономическое, культурно-просветительское развитие, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Быстрые темпы развития современного периода расширили исследовательскую деятельность в области языкознания. Вместе с тем были проведены масштабные исследования, посвящённые историческому развитию пословиц, их структурно-семантическим и стилистическим особенностям. В работах использовались различные подходы. Так, исследования Ф. Витковской, В. Мидера, А. Жолковского в рамках лингвистического и семантического подходов ориентированы на изучение фразеологических и

паремиологических единиц с точки зрения формы, содержания и функций[40]. В исследованиях Г. Балыковой, Л. Савенковой, О. Дмитриевой и А. Вежбицкой когнитивный и концептуальный подходы рассматриваются в национально-культурном контексте и в пределах концептов[41].

Наряду с этим сравнительные исследования М.Азимовой, Ж.Амбарцумовой, Е.Гурбиш, М.Кууси, Е.Ивановой направлены на сопоставление фразеологических и паремиологических единиц в русском, английском, немецком, таджикском, арабском, польском и других языках[42]. Исторические и фольклористические исследования В.Даля, Ф.Буслаева, К.Жарикбаева, А.Жигулёва посвящены изучению устного народного творчества и истории паремий [43] . Фразеологические и грамматические исследования В. Архангельского, А. Жукова, П. Логана, Н. Амосовой, А.Кунина содержат глубокий анализ границ между паремиологическими и фразеологическими единицами, а также их синтаксических и семантических особенностей[44].

